

## PEDAGOGLARNING KASBIY MULOQOT MADANIYATI.

*Fargona davlat universiteti*

*22.146-guruh talabasi*

***Giyasova Maftuna***

*Fargona davlat universiteti óqituvchisi*

***Rasulova Aziza***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolda hozirgi kunda barcha pedagoglar uchun muhim bo`lgan kasbiy madaniyati, shirinso`zligi, ochiq chexrasi, samimiyligi muomalasi bilan ijobiy natijalarga erishishi, hamda, eng muhimi yosh o`qituvchilarining o`z kasbiy mahoratlarini oshirishda o`quvchilar bilan muloqot madaniyatini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishlari zarurligi haqida so`z yuritiladi.

**Kalit so`zlar:** Pedagoglar, o`quvchilar, muloqot madaniyati, ta`lim-tarbiya, kasbiy maxorat, peganogik maxorat, muomala madaniyati, nutq madaniyati, so`z boyligi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin ta`lim tizimida katta o`zgarishlar ro`y bera boshladi. Odamlarning ongi, dunyoqarashi o`zgardi. Buyuk ma`naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg`unlanadirish, uni jahon andozalari darajasiga chiqarish, o`quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko`nikmalarini hosil qilish kabi vazifalarga javobgarlik hissi o`quvchilar zimmasiga yuklatildi.

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta`kidlaganidek, “ Yosh avlodimizning qalbi va umumbashariy qadriyatlarni ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro`y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma`no-mazmuni va asl sabablarini chuqur anglash, o`z atrofida sodir bo`layotgan voqealar haqida haqqoniyligini ma`lumotlarga, eng muhimi, o`z mustaqil fikrga ega, sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga, qodir bo`lishga erishish ta`lim-tarbiya va ma`naviy- ma`rifiy ishlarimizning asosiy sharti va me`zoni bo`lishi kerak... bugungi vaziyatda mustaqil ong va mustaqil fikrga ega bo`lgan shaxsni tarbiyalash masalasi nafaqat ma`naviy, kerak bo`lsa, muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi”.

Pedagogik muloqotda o`qituvchining eng yahshi fazilatlari va hatti-xarakatlari o`quvchining ideali sifatida namoyon bo`ladi. O`quvchining o`qituvchi shaxsi haqidagi qarashlari, uning pedagogik mahorati ma`naviy madaniyatiga mos kelmasa, pedagogik jarayonni mukammal tashkil etish ham ijobiy natija betmaydi.

O`qituvchi bilan o`quvchi o`rtasidagi qattiq avtoritar intizom ham o`zaro muloqot madaniyatiga salbiy ta`sir etadi, natijada esa o`quvchining ichki hissiyoti, shu bilan birga shaxsiy fazilatlari rivojlanmaydi.

Pedagogik muloqot madaniyati o`qituvchi faoliyatini muvaffaqiyatga yo`naltiruvchi eng muhim vositadir. Muomala madaniyati barcha falsafiy va psixologik fanlarda o`ziga xos ta`rifga ega. Pedagog muomalasi bilan o`quvchilar qalbiga yo`l topa olishi, ularning mehrini qozonishi, ta`lim-tarbiya jarayonida o`quvchilar bilan o`zaro aloqa bog`lay olish qobiliyatiga ega bo`lishi kerak. Ayniqsa, bu jarayon yosh o`qituvchilar uchun muhim ahamiyatga ega. Pedagogik muloqot orqali o`qituvchi o`quvchilar bilan o`ziga xos muhit yaratadi.

\*O`qituvchining shirinsuxanligi, ochiq chexraligi, samimiyligi muomalasi muloqotda ijobiy natijaga erishish kalitidir.

Axir xalqimizda “Yahshi gap bilan ilon inidan...” degan maqol bejizga aytilmagan.

O`qituvchi o`quvchilar jamoasi bilan o`zaro do`stona munosabatda bo`lishida uning nutqi va til boyligi ham muxim ahamiyat kasb etadi. Zotan, til va nutqning teranligi, o`qituvchining mahoratini, ma`naviy boyligini, o`qituvchilik qobiliyatining qay darajada ekanligini ifodalaydigan o`lchov hidoblanadi.

Amerikalik taniqlik shoir Rolf Emirson: “Nutq qudrati kuch: u ishontiradi undaydi, majbur qiladi” deydi. Sharq mutaffakirlari til va nutq vositalari orqali notiq, voiz, badiiyhago`y, qissaxon kabi maxsus san`at ahillari va mudarrislar, diniy, ta`lim-tarbiyaviy, islomiy aqidalarni ommaga singdirishgani, pand-nasihatlar qilishgani bayon etiladi. Ushbu nutq sohiblari keng qamrovli bilimga, boy axborotga ega bo`lishgan.

Alisher Navoiy “Voiz olimning o`zi avvalo halol ish ko`rvuchi bo`lishini uning nasixatidan chiqmaslikni “o`z asarlarida bayon etgan. Shuning uchun til shirinligi va notiqlik san`ati ustida ishlash, nutq madaniyatini oshirish har bir o`qituvchining eng asosiy burchi va ma`suliyatni hisoblanadi. Ta`lim-tarbiya jarayonida nutqning ta`sir kuchi

nihoyatda beqiyosdir. O`qituvchining tili, nutqiy qobilyati o`quvchilarning o`zlarini tuta bilishlariga, xulq-atvori va fikr yuritishlariga katta ta`sir etuvchi kuchli vositalardir.\*<http://muhaz.org/mavzu-pedagogik-muloqot-oqituvchining-ijodiy-faoliyatini-va-ta.html?page=4>

O`qituvchining pedagogik faoliyati uzluksizdir. Shunday ekan u pedagogik muloqot muntazam ravishda shakillantirib borishi, pedagogik faoliyati davomida o`z ustida ishslashdan to`xtamasligi lozim. O`quvchilar bilan til topishda esa ular bilan hamisha hamnafas bo`lishi kerak. Bir so`z bilan aytganda o`zining “Men” iga ega bo`lgan yoshlarga “Siz” deya murojat qiladigan pegagogik kasbiy muloqot madaniyati yuksak bo`lgan ustoz va murabbiylargina shiddat bilan oqib borayotgan ta`lim-tarbiya ummonida cho`kib ketishmaydi. Aksincha, ular mustaqil yurtimizning porloq kelajagiga o`zlarining kamtarin hissalarini qo`shishda charchamaydilar.

Men yuqoridagi mavzuni yoritshda o`z fikrlarimni bayon etdim. Shu bilan birga ijtimoiy tarmoq ma`lumotlaridan foydalandim. <http://muhaz.org/mavzu-pedagogik-muloqot-oqituvchining-ijodiy-faoliyatini-va-ta.html?page=4>